

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING XOZIRGI XOLATI VA UNING IQTISODIY TAXLILI

Axmedov Zoxid Sobirovich

Jizzax politexnika instituti, “Transport logistikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi

Ma Yaowen

Nankin transport texnologiyalari kasb-hunar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi transport xizmatlari bozorining hozirgi holatini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada transport tizimining rivojlanish tendensiyalari, sohadagi mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: transport xizmatlari bozori, transport infratuzilmasi, yo‘l infratuzilmasi, transport tarmoqlari (avtomobil, temir yo‘l, havo va dengiz), avtomobil transporti.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РЫНКА ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ЕГО ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Ахмедов Зоҳид Собирович

Старший преподаватель кафедры” транспортная логистика " Джизакского
политехнического института

Ма Яовэнь

Нанкинский профессиональный институт транспортных технологий

Аннотация: данная статья направлена на изучение текущего состояния рынка транспортных услуг Республики Узбекистан. В статье анализируются тенденции развития транспортной системы, существующие проблемы и возможности в отрасли.

Ключевые слова: рынок транспортных услуг, транспортная инфраструктура, дорожная инфраструктура, транспортные сети (автомобильные, железнодорожные, воздушные и морские), автомобильный транспорт.

CURRENT STATE OF THE TRANSPORTATION SERVICES MARKET IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS ECONOMIC ANALYSIS

Akhmedov Zohid Sobirovich

Jizzakh polytechnic institute, "Transport logistics" department, Senior teacher

zohidjonaxmedov0588@gmail.com

Ma Yaowen

Nanjing Vocational Institute of Transport Technology

Annotation: This article is aimed at studying the current state of the transportation services market of the Republic of Uzbekistan. The article analyzes trends in the development of the transport system, existing problems and opportunities in the industry. It considers Uzbekistan's transport infrastructure, international and domestic transportation routes, as well as issues of competitiveness and government policy.

Key words: transport services market, transport infrastructure, road infrastructure, transport networks (road, rail, air and sea), road transport,

Kirish. O'zbekiston Respublikasi, o'zining geografik joylashuvi va iqtisodiy salohiyati bilan mintaqaviy va xalqaro transport tarmoqlarida muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda transport tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar nafaqat ichki bozorni raqobatbardosh qilish, balki xalqaro transport yo'nalishlarida O'zbekistonning o'rnini mustahkamlashga ham qaratilgan.

Transport xizmatlari bozori iqtisodiy faoliyatning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, yuk va yo'lovchi tashish, logistik xizmatlar, avtomobil, temir yo'l va havo transporti kabi xizmatlar bozori mamlakat ichki va tashqi savdosining samarali amalga oshirilishida muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda O'zbekistonda transport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi infratuzilma loyihalari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali transport xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirishga intilmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekiston transport xizmatlari bozorining hozirgi holati tahlil qilinib, uning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, mavjud muammolar va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari o'rganiladi. Bozorning hozirgi holatini to'liq tahlil qilish va uning imkoniyatlarini baholash mamlakatning transport infratuzilmasini takomillashtirish va iqtisodiy o'sishni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasida transport xizmatlari bozorining hozirgi holatini baholash va uning iqtisodiy tahlilini amalga oshirish uchun bir qator ilmiy usullar va metodlar qo'llanildi. Ilmiy yondashuv va tizimli tahlil, statistik tahlil usullari, solishtirma tahlil (komparativ metod), ekspert baholash usuli, huquqiy-normativ tahlil usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi.

Transport xizmatlari bozori va uning iqtisodiy ahamiyati bo'yicha O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ko'plab ilmiy ishlar, monografiyalar, maqolalar va tahliliy hisobotlar chop etilgan. Ushbu adabiyotlar transport tizimining rivojlanish bosqichlari, samaradorligi, iqtisodiyotga ta'siri hamda xizmatlar bozorining shakllanishiga oid dolzarb masalalarni yoritib beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchilar tomonidan transport xizmatlari bozorining iqtisodiy ahamiyatiga oid tadqiqotlarda, xususan, A. Jo'rayev, Sh. Islomov, M. Karimov kabi olimlarning ishlarida transport infratuzilmasi va xizmatlar sektori mamlakat iqtisodiyoti tarkibida muhim o'rin tutishi, ularning YIMdagi ulushi, logistika tizimi bilan bog'liqligi keng tahlil qilingan. Bu tadqiqotlarda transport xizmatlari sohasida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan.

Natijalar qismi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ishtirokchilari soni qariyb 18,2 mingtaga yetdi (2023 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2,6 mingtaga ko'paydi). Shundan eksportyorlar soni 4,1 mingta (2023 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 1,1 ming

taga ko‘paydi)ni tashkil etgan bo‘lsa, 14,1 ming (2023 yilga nisbatan 1,5 ming taga ko‘paydi) importyorlar tomonidan tovar va xizmatlar import qilindi³.

O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-mart holatiga ko‘ra, 5 098,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 1 718,9 mln. AQSH dollariga yetgan bo‘lsa, import – 3 379,6 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (54,9 %), Qozog‘iston (18,4 %) hamda Turkmaniston (4,6 %) davlatlarida qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi

(2024-yil yanvar-mart, mln. AQSH dollari)⁶



Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi – xalqaro yuridik maqomga ega bo‘lgan mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalashgan xalqaro tashkilot bo‘lib, 2014-yil 29-maydagi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma bilan tasdiqlangan. Shuni takidlash lozimki, YEIning a‘zo davlatlari (Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlari

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlari.

erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

O'zbekiston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 4 041,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 1 160,9 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 2 880,8 mln. AQSH dollariga yetdi.

Xulosaqilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida transport xizmatlari bozori mamlakat iqtisodiy tizimining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar va infratuzilma loyihalari bu sohaning sifat va miqyos jihatdan kengayishiga xizmat qilmoqda. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, transport xizmatlari hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, ayniqsa avtomobil va temiryo'l transporti bo'yicha ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Shu bilan birga, logistika tizimidagi muammolar, xizmatlar sifati, texnologik yangilanishning sustligi kabi masalalar sohani yanada rivojlantirishni talab qilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlari. 2025-yil
2. "O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori hozirgi holati tahlili", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2023.
3. Kalonov M. Transport logistikaning iqtisodiy ahamiyati. T.: Biznes-ekspert. 2019. №9. -76.
4. Nosirova J. O'zbekistonda logistikaning xizmatining rivojlanishi va istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. TDIU. № 4, 2016 yil. www.iqtisodiyot.uz -2 B.
5. Raxmatullayev Mustafoqul, Axmedov Zoxid Sobirovich. Avtotransport xizmatlari sohasini rivojlantirish maqsadida hududiy transport logistikasi sohasini boshqarishning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish.// "Экономика и социум" №11(114)-2 2023 295-303.